

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA‘SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To‘xtasinov Mira‘zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og‘abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

- Yuldashev Rustam Daniyrovich*
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93
- Adilov Zafar Yunusovich*
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98
- Berdikulova Surayyo Aslamovna*
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104
- Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113
- Yarbaev Xasan Xazratqulovich*
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118
- Maxsudjonov Kamronjon*
MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA
TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123
- Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128
- Otaqulov Elyor Madiyrovich*
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136
- Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- Niyazov Ravshan Turakulovich*
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148
- Yunusova Xilola Ravshan qizi*
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154
- Absalamova Gulmira Sharifovna*
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158
- Dadajanova Aziza Karimullayevna*
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170
- Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI
RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)
ERTAGI MISOLIDA 171-175
- Babajanova Iqbol Salomaddinovna*
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafuz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahridin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyoroova Nilufar Berdiyora qizi</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

VARIATIONS AND SYMBOLIC MEANINGS IN THE JAPANESE FOLK TALE: THE CASE OF “MOMOTARO” (THE PEACH-BORN BOY)

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,

Responsible editor of the magazine “Keksalik gashti” and
the newspaper “Nuroni”

Master's student at the
Faculty of International Journalism, UzSWLU

Abstract. This article analyzes the diversity of versions, the text, and the changes occurring in oral and written renditions of the Japanese folk tale “Momotaro” (The boy born from a peach), a product of traditional oral literature.

Keywords: fairy tale, Japanese folklore, peach, old man and old woman, dog, monkey, pheasant, demon, variant.

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA’NOLAR: “MOMOTARO” (SHAFTOLIDAN TUG’ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,

“Keksalik gashti” jurnali va
“Nuroni” gazetasi mas’ul muharriri

O’zDJTU “Xalqaro jurnalistika” fakulteti magistranti

E-mail: shahnoza.uz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada xalq og’zaki ijodi mahsuli – ertakning turfa variantliligi, matni, og’zaki va yozma ijroda turli o’zgarishlarga uchrashi “Momotaro” (Shaftolidan tug’ilgan bola) nomli yapon xalq ertagi orqali tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: ertak, yapon folklori, shaftoli, chol va kampir, kuchuk, maymun, tustovuq, jin, variant.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N26>

Yapon xalq ertaklari orasida “Momotaro” ertagining bosh qahramoni o’zining sehrli tug’ilishi va qahramonlik maqomiga erishish mobaynidagi sarguzashtlari bilan mashhur. Bu ertak yovuz “onilar” jinlarni (jin mifologiyadagi maxluq hisoblanib, Yaponiya, Xitoy yoki Yevropa xalq ertaklari va miflaridagi yovuz kuchlarning timsoli. Masalan, yaponlardagi oni (鬼), o’zbek tilida jin yoki maxluq degan ma’noni anglatadi) yengish uchun safarga chiqqan yosh bolakay – Momotaro haqida. Shuningdek mazkur xalq ertagi jasorat, jamoa bo’lib barcha qiyinchiliklarni yengish va yaxshilikning yomonlik ustidan g’alabasi kabi mavzularni o’zida aks ettirgani bois, yapon madaniy merosida sevimli va abadiy timsol sifatida bugungi kungacha yashab kelmoqda.

“Momotaro” rivoyati to’rt yuz yildan ortiq vaqt avval mavjud bo’lgan, lekin u faqatgina zamonaviy davrda mahalliy afsonaga aylantirilgan. Darhaqiqat mazkur ertak uzoq yillar davomida turfa xil shakl va mazmunda aytilib kelgan.

Momotaro, ya'ni "Shaftoli bola", katta shaftoli ichidan tug'ilgan bola bo'lib, uni farzandi yo'q kekxa juftlik topib oladi. U o'sib-ulg'aygan sayin g'ayritabiiy kuchga ega bo'lib, jasoratli va oliyjanob yigit bo'lib voyaga yetadi. Momotaro yovuz jinlarga qarshi xavfli safari davomida katta jasorat va yetakchilik qobiliyatini ko'rsatadi. Uning qat'iy maqsadi va adolatparvarligi boshqalarga ilhom beradi va uni xalq orasida afsonaviy qahramon maqomiga olib chiqadi.

Bu ertakning ilk yozma manbalari Edo davriga (1603–1868) taalluqli bo'lib, o'sha paytlarda Yaponiyada san'at va adabiyot rivojlangan edi. Hikoyaning asosiy mazmuni – sehrli tug'ilish, hayvonlardan iborat jamoa bilan safarga chiqish va yovuz jinlarni yengishdan iborat. Biroq vaqt o'tishi bilan ertakning turli talqinlari yuzaga kelgan.

"Momotaro" ertagi ham odatdagidek "むかしむかしあるところにおじいさんとおばあさんがいました", ya'ni "Qadim qadim zamonda chol va kampir bo'lgan ekan", degan kirish qismi bilan boshlanadi. Bir kuni kampir daryo bo'yida kir yuvayotgan paytida suv yuzasida oqib kelayotgan shaftolini ko'rib qoladi va uyiga olib kelib choliga ko'rsatadi. Ular birgalikda shaftolini bo'lib ko'rishganida, shaftolining ichidan go'dak tug'iladi.

Ularning farzandlari yo'q edi. Chol va kampir bolakayni ismini "Momotaro" deb qo'yishadi. "Momo" (もも) yapon tilida– "shaftoli", "taro" (たろう) esa "oiladagi katta o'g'il" degan ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki yapon xalq ertaklari va afsonalarida "taro" ismi bilan nomlangan bosh qahramonlar ko'plab uchraydi. "Urashima taro" (Toshbaqani qutqargan bola) va "Kintaro" (Tilla bola) kabilar shular jumlasidan.

Momotaro o'smirlilik yoshiga yetgach, ota-onasini tark etib, "Onigashima"

(鬼ヶ島), ya'ni "Yovuz jinlar oroliga" yo'l oladi. U yo'lida gapira oladigan it, maymun va tustovuq bilan do'stlashadi. Ularga onasi tayyorlab bergan mazali yeguliklardan beradi. Orolga yetib borgach, Momotaro va uning do'stlari jinlar qal'asiga kirib borib, ularni yengib, taslim bo'lishga majbur qiladilar. Yovuz jinlarning odamlardan olib qo'ygan qimmatbaho buyumlarini egalariga qaytarib, g'alaba bilan uyga qaytishadi [1].

"Momotaro" ertagining ushbu klassik shakli Meyji davri boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarda berilgan va ommalashgan. Asl nashrda ertak sarlavhasiz bo'lgan. Bu esa adabiy "Momotaro" ertagining shakllanishi natijasi bo'lib, uning qo'lyozma va chop etilgan turlari Edo davri boshlaridan Meyji davrigacha rivojlanib kelgan.

Edo davridagi adabiyot namunalarining ko'pida Momotaro shaftolidan tug'ilmagan, ya'ni chol va kampir shaftoli mevasini yeganlaridan keyin yosharib, so'ng tabiiy yo'l bilan farzandli bo'ladilar, degan mazmun bor.

Yapon folklorida bunday variantlar "Kayshun-gata" (回春型) – "yosharish" turiga kiradi. "Momotaro" ertagining hozirgi kundagi mashhur bo'lgan varianti esa "Kasey-gata" (果生型) – "mevadan tug'ilish" turiga mansubdir.

Momotaro haqidagi yapon xalq ertagi turli davrlarda turli variantlarda ommalashgan bo'lsada, asosiy syujet o'zgarmay qoladi. Ya'ni Momotaro ulkan shaftolidan tug'iladi, hamroh do'stlari bo'lmish it, maymun va tustovuq bilan birga bir jamoa bo'lib, yovuz jinlar yashaydigan orolga jo'naydi va ular bilan jang qilib, ularni mag'lub etib, xalqdan o'g'irlangan boyliklarni qaytarib olib keladi.

Yaponiya Milliy Parlament Kutubxonasi arxivida saqlanayotgan "Momotaroning xazinalari haqida"gi audioyozuv (og'zaki) shakli bugungi kundagisidan ancha farq qiladi. Mazkur og'zaki variantda qadimdan shaftoli mevasi mo'jizaviy kuchga ega ekanligiga urg'u berilgan.

“Chol va kampir shaftolini yegan zahoti, hayratlanarli holat sodir bo‘ldi. Chol 35–36 yosh, kampir esa 28–29 yoshli juvonga aylandi. Ular qo‘l ushlab, bir-birlariga hayrat nigohi ila boqardilar. Ikki juftlik o‘g‘il farzandli bo‘lishdi.

Hayratlanarlisi bola 9 oyda emas, 3 yilda tug‘ildi. Shuning uchun ham, tug‘ilgandan so‘ng u darhol yugura boshladi. Momotaro bolaligidanoq kuchli va zehnli edi. U o‘qish va yozishda, shuningdek, kurashda ajoyib natijalarga erishdi. Momotaro 16 yoshga yetgach, xalqni qiynoqqa solib kelayotgan “Yovuz jinlar” oroliga yo‘l oladi” [2]. Ertakning qolgan qismi odatdagidek davom etadi va nihoyasiga yetadi.

Bu ertak bolaning ilk hayotiy tajribalar orqali ulg‘ayib, katta insonga aylanishini tasvirlaydi. Ertak nihoyasi yaxshilik bilan yakun topadi. E‘tiborlisi, mazkur variantda qahramonlarning yoshi aniq qilib berilgan.

“Momotaro” ertagidagi ramziy ma‘nolar

Momotaro ertagi chuqur ma‘no va qadriyatlarga asoslangan ramzlar bilan boyitilgan. Ulardan eng muhimi – shaftoli. Yapon madaniyatida shaftoli hayot, hosildorlik va yangilanish ramzi sanaladi. Yapon xalq e‘tiqodiga ko‘ra, shaftoli mevasi baxtsizlik va yomonlikni quvib solish xususiyatiga ham ega. Ertakda esa bu jarayon Momotaroning yovuz jinlarni yengishi syujeti bilan mos keladi.

Yapon yozuvchisi Akutagava Ryunosukening “Momotaro” hikoyasida shaftolining sehrli meva ekanligiga alohida urg‘u berilgan. Ertak quyidagicha boshlanadi:

“Qadim qadim zamonda, tog‘ bag‘ridagi chuqur vodiya ulkan shaftoli daraxti o‘sar edi. Uni “ulkan” deb atashning o‘zi yetarli emas – uning shoxlari bulutlar ustigacha yetib, ildizlari esa yomon ruhlar dunyosi – Yomigacha cho‘zilar edi. Bu daraxt xuddi osmon ochilgan davrdan, ya‘ni “Izanagi-no mikoto” uni quvlayotgan Yomi ajuzlariga shaftoli otib, qutulgan paytdan beri mavjud edi. O‘sha xudolar davridan qolgan shaftoli urug‘i daraxtga aylangan edi. Olam yaratilganidan beri bu daraxt har o‘n ming yilda gullagan va har o‘n ming yilda bir marta meva bergan. Uning gullari qizil ipak tolalariga o‘xshardi, meva uchidan esa oltin ipak ko‘rinib turar edi. Mevasi u qadar katta emas edi. Lekin eng sirli tomoni – meva ichida urug‘ emas, bola tug‘ilar edi. Juda, juda qadim zamonda, uning shoxlari butun vodiya bo‘ylab yoyilgan. Bu o‘n ming yilda bir gullaydigan meva ming yil yerga tushmasdan shoxda qimir etmay turar edi. Bir kuni tongda Yatagarasu (uch qanotli afsonaviy qora qarg‘a) sehrli daraxt shoxiga qo‘ngan zahoti kichik meva yerga tushib ketdi. U baland bulutlar orasidan qulab, chuqur vodiya yetib, toshli sharsharalar oralig‘idagi daryodan oqib, odamlar yashaydigan makongacha suvda oqib bordi...” [3].

Yapon folklorshunosligiga asos solgan olim Yanagita Kunio ertakning bosh qahramoni Momotaro shaftolidan tug‘ilish motivini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlamaydi, balki folklor va mifologiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ya‘ni yapon xalq og‘zaki ijodi va folkloridagi mifologik tasavvurlar asosida tahlil qiladi. Yanagita “Momotaro” ertagidagi shaftolining ramziy ma‘nosiga emas, balki ertakdagi asosiy g‘oya – “chiisako” mavzusi, ya‘ni tug‘ilishi g‘ayrioddiy va sehrli bo‘lgan kichik bolalar haqidagi obrazga urg‘u beradi.

“Yapon xalqi tog‘li hududlarga ko‘chib o‘ta boshlaganida, ruhlar osmondan tushib kelib, avval tog‘ cho‘qqisiga, so‘ngra odamlar dunyosiga kelishgan, deb ishongan. Shunday ekan, bir ruh tog‘ daryosi bo‘ylab oqib kelib, bizning dunyoga kirib kelishini tasavvur qilish – hayratlanarli emas” [4].

Yanagita fikriga ko'ra, o'zidan oldingi olimlar, jumladan Edo davrining mashhur adabiyoti va mutafakkiri Takizava Bakin, Momotarodagi shaftolining ramziy ma'nosiga ko'proq e'tibor qaratishgan. Biroq Yanagita shaftolining o'ziga xosligini tan olgan holda, uning ahamiyatini kamaytirishga urinadi. U bundan ko'ra chiisako mavzusini markazga qo'yadi va buni Yaponiya xalqining diniy e'tiqodi bilan bog'laydi [5].

Ertakning yakuni va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi haqida Yanagitaning o'zgacha mulohazalari bor. "Momotaroning sayohati maqsadini ko'rib chiqaylik. Bu jarayonda yapon xalq ertaklari soddalashtirilgan. Yevropadagi Momotaroga o'xshash qahramonlarning sayohatlari ko'pincha faqat xazina topib qaytish bilan cheklanmaydi. Ushbu xazina ko'pincha uy, turmush va farzandlar bilan baxtli hayot qurish uchun vosita bo'ladi. Yaponiyada esa bunday baxtli yakunga ega bo'lgan ertak faqat "Urikojime" (うりこひめ) ertagidir. G'arbda esa erkak qahramon xazina topib, malikaga uylanadigan misollar juda ko'p. Momotaroning zamonaviy shaklidan bu qism atay olib tashlangan ko'rinadi. Ehtimol, ertak qahramoni bola ekani, shuningdek, uning asosiy auditoriyasi ham bolalar bo'lgani sababli shunday qilingandir", deydi Yanagita.

Bu yerda Yanagita shunday nazariyani ilgari suradiki, Momotaroning olis vodiya sayohatidan asosiy maqsad – hamroh ayol topish bo'lgan. Butun Yaponiya bo'ylab to'plangan yuzlab "Momotaro" ertaklari variantlaridan faqat ozgina qismigina qahramonning umr yo'ldosh topishga yo'lga chiqqanidan so'zlaydi. Keyingi tadqiqotchilar esa bu kabi variantlarni "Momotaro" va boshqa ertaklarning qo'shib ketgan shakli deb baholashgan.

"Kodjiki" va "Nixon shoki" kabi qadimiy manbalardagi "Yomi no kuni" (o'liklar dunyosi) haqidagi afsonada shaftolining yomonlikka qarshi qo'llanilishi yoki mashhur yapon xalq ertagi "Momotaro"da yovuz jinlarni yengishda uning roli orqali, odamlar shaftolining muqaddasligi va sehrli xususiyatlarini yaqindan his qilishlari mumkin. Shu sababli, folklorshunoslikda ushbu mavzu juda mashhur va dolzarb hisoblanadi" [6].

Shuningdek, ertakdagi yovuz maxluqlar – insonlar duch keladigan sinovlar va qiyinchiliklarni ifodalaydi. Momotaroning ularga qarshi kurashi – jasorat, bardosh va ma'naviy kuch ramzidir. Yovuz jinlar ustidan qozonilgan g'alaba esa shaxsiy va jamiyatdagi to'siqlarni yengishni, sabr-toqat va iroda bilan har qanday muammoni hal qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Momotaroning hamrohlari, do'stlari – it, maymun va tustovuq ertakda muhim rol o'ynaydi. Har bir hayvon alohida qobiliyatga ega bo'lib, Momotaroning yetakchiligini to'ldirib turadi. It – kuch va sadoqat ramzi bo'lsa, maymun chaqqonlik va ziyoratlik bilan muammolarni hal qiladi. Tustovuq esa – parvoz qilish va o'tkir ko'rish qobiliyatga ega ekanligi bilan xavf-xatarlarni ilgaridan payqaydi. Bir so'z bilan aytganda, ertakda jamoaviy to'rtlik birdamlik va do'stlikning kuchini yaqqol namoyon qiladi.

Ta'kidlash joizki, "Momotaro" ertagi urush davrida targ'ibot vositasi sifatida ham ommalashgan. Bu ertak yapon bolalari tarbiyasida jasorat, mehr-shafqat va qat'iyat kabi fazilatlarini singdirishda muhim rol o'ynagan. Momotaro jasur yetakchi va himoyachi timsoli sifatida ideal yapon qahramoniga aylangan.

Xususan, Ikkinchi jahon urushi paytida hukumat bu ertak orqali insonlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirishga e'tiborni qaratgan. Momotaro – adolat va jasorat ramzi sifatida, hayvonlar armiyasi bilan birga dushmanlarni yengadigan qahramon sifatida tasvirlandi. Shu sababli ham Momotaro – Yaponiya jamiyatida eng mashhur xalq

ertaklaridan biri bo‘lib, mamlakatdagi barcha boshlang‘ich maktablarda majburiy o‘qitiladigan materialga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Momotaro – yapon xalq og‘zaki ijodining afsonaviy qahramoni sifatida hanuzgacha Yaponiya xalqi uchun ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Uning jasorat, mehr va adolat timsoli sifatidagi obrazi uni abadiy qahramonga aylantiradi.

Momotaro haqidagi rivoyatlar nafaqat bolalar uchun axloqiy tarbiya manbai, balki xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy e‘tiqodlari va tarixiy tajribasini ifoda etuvchi madaniy meros hamdir. Uning tug‘ilishi bilan bog‘liq “chiisako” mavzusi, inson va tabiat, inson va ruhlar olami o‘rtasidagi aloqalarni anglatadigan ramzlar orqali yapon mentalitetining chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Folklorshunos Yanagita Kunio yoritganidek, Momotaro haqidagi ertaklar orqali nafaqat yakka qahramon obrazi, balki butun xalqning milliy xarakterini, urf-odatlarini va madaniy evolyutsiyasini tushunish mumkin. Uning g‘alabasi – shunchaki zo‘ravonlikka qarshi kurash emas, balki hamkorlik, halollik va ezgulik bilan yovuzlikni yengish ramzidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Momotaro” ertagi. Meyji davri.1887 yil. “Yaponiya Ta’lim Vazirligi” (もんぶしよ) tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chop etilgan.
2. “Momotaroning xazinalari haqida”.1830–1840-yil. Yaponiya, “Kanoya” nashriyoti.
3. A.Ryunosuke. “Momotaro” hikoya.1924 yil.
4. Ya.Kunio. “Momotaroning tug‘ilishi”1933 yil.
5. D. Xenri. “Momotaro yoki Shaftoli bola: Yaponiyaning eng sevimli xalq ertagi milliy allegoriyasi sifatida” nomli dissertatsiyasi. 2009 y.
6. M.Yusuke. “Shaftolining sehrlil xususiyatlari bo‘yicha qiyosiy folklorshunoslik – Yaponiya misollari asosida” mavzusidagi ilmiy maqola. “Qiyosiy xalq og‘zaki ijodi tadqiqotlari” (比較民俗研究) jurnali. 1990 yil. 2-son. 88-bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).